

NOROV TOJI OMONOVICH



---

**ALISHER NAVOIYNING  
BORLIQ FALSAFASI**

---


MONOGRATIYA

«IQTISODIYOT»

1(5)(091)

N 78

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



NOROV TOJI OMONOVICH

---


---

# ALISHER NAVOIYNING BORLIQ FALSAFASI

---

---

*Monografiya*



TOSHKENT  
«IQTISODIYOT»  
2023

UO 'K: 811.161.1(076)

KBK: 83.3 (5ŷ) я73. Ф 37

**Norov T.O. "Alisher Navoiyning borliq falsafasi": Monografiya.**  
– Toshkent: IQTISODIYON, 2023. – 224 b.

Mazkur monografiya, nafaqat musulmon Sharqi falsafasida, balki jahon falsafasida o'zining betakror merosi bilan salmoqli o'rin tutgan ulug' mutafakkir, yirik olim, o'zbek mumtoz tili va adabiyotining asoschisi, she'riyat mulkinging sultoni, davlat va jamoat arbobi – Amir Alisher Nizomiddin Navoiy falsafiy merosi aniqrog'i uning borliq falsafasiga oid qarashlari mazmun-mohiyati tahliliga bag'ishlangan.

Monografiyada, Alisher Navoiy ontologik qarashlarining Sharq va G'arb mutafakkirlari ontologiyaga oid qarashlari bilan qiyosiy tahlili, mutafakkir falsafasida koinot, vaqt, borliq, uning yaralishi, yaralish ibtidosi, mavjudlik shakli va tarzi, darajasi va inqirozi, borliqdagi ashyolarning yo'qlikka aylanishi, olamda insonning maqomi, olam va borliqni anglashda inson tafakkurining o'rni, axloq falsafasida tasavvufiy qarashlarning o'rni va ahamiyati, tasavvuf suluklari va tariqat namoyondalarining borliqqa oid qarashlarida vahdoniyat, vahdatul vujud falsafiy ta'limotidagi qarashlar va ular o'rtasidagi ixtilofli munosabatlar, ularning dialektik falsafa tarixidagi o'rni, mavzuning Navoiy merosidagi talqini kabi jihatlarini tahlil, tadqiq qilinish, ilmiy xulosalar qilingan. Monografiya falsafa, ijtimoiy fanlar sohasi vakillari, umuman mutafakkir ijodiga qiziquvchilarga mo'ljallangan.

*Mas'ul muharrirlar: f.f.d., prof. B.Aliev*

*f.f.d., prof. A.Muxtarov*

*Taqrizchilar: f.f.d., prof. Sh.Madaeva*

*s.f.d., prof. V.Qo'chqarov*

*f.f.n., dots. T.Sultanov*

*Monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy kengashining qaqori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

**ISBN 978-9910-9694-1-6**

© «IQTISODIYOT», 2023.

© Ayubjonov A.H., 2023.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	5
<b>I bob. ALISHER NAVOIY ONTOLOGIK QARASHLARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI</b> .....	11
1.1. Alisher Navoiy falsafiy qarashlarining nazariy manbalari va metodologik asoslari .....	11
1.2. Alisher Navoiy falsafiy merosini o'rganishda turli g'oyaviy-mafkuraviy yondashuvlar .....	30
I bob bo'yicha xulosa .....	49
<b>II bob. ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA INSON BORLIG'I, BORLIQNI BILISH NAZARIYASI VA ONTOLOGIYAGA OID ISTILOHLAR IZOHI</b> .....	51
2.1. Alisher Navoiy ontologik falsafasida – bilish nazariyasi .....	51
2.2. Navoiy asarlarida qo'llanilgan ontologiyaga oid istiloh va tushunchalarning falsafiy tahlili .....	67
II bob bo'yicha xulosa .....	84
<b>III bob. ALISHER NAVOIY ONTOLOGIK FALSAFASIDA KOSMOS, MAKON VA VAQT MUAMMOSI</b> .....	87
3.1. Alisher Navoiy ontologiyasida borliq, kosmos va makon talqini ..	87
3.2. Navoiy Ontologik falsafada vaqt talqini .....	109
III bob bo'yicha xulosa .....	124
<b>IV bob. NAVOIY ONTOLOGIYASIDA SUBSTANSIYA, MODDIY VA NOMODDIY OLAM MUNOSABATI</b> .....	126
4.1. Navoiy ontologik falsafasida substansiya va moddiy borliq muammolari .....	126
4.2. Alisher Navoiy ontologik qarashlarida nomoddiy borliq tahlili ..	144
IV bob bo'yicha xulosa .....	161

<b>V bob. NAVOIY ONTOLOGIK FALSAFASIDA VAHDATUL VUJUD VA TASAVVUF MAVZUSINING ILMIY-MA'RIFIY TALQINI</b> .....	163
5.1. Navoiy falsafasida “Vahdoniyat”, “Vahdat” va “Vahdatul vujud” tushunchalarining ontologik talqini .....	163
5.2. Alisher Navoiy tasavvufiy falsafasida borliq va ijtimoiy-axloq munosabati talqini .....	184
V bob bo'yicha xulosa .....	204
<b>XULOSA</b> .....	206
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	210

## KIRISH

Jahon falsafasi paydo bo'lganidan hozirgi kungacha bo'lgan taraqqiyot yo'lidagi asosiy muammo – olamning, borliqning yaralishi, undagi ashyolarning paydo bo'lishi, mavjud bo'lishi va yo'qlikka aylanishi va o'zgarishi bilan bog'liq masalalardir. Insoniyat tarixi, falsafa tarixining turli davrlarida olam, borliq uning yaralishi, yashashi va kelajagi bilan bog'liq masalalar turli tarzda, daraja va talqinlarda ifodalab kelingan. Garchi zamonaviy fan yutuqlari tufayli dunyo va olam haqidagi bilimlar yetarli va deyarli tabiatni yechilmagan siri qolmagandek tuyulsada, u bilan bog'liq muammolar yangicha tarzda namoyon bo'lmoqda. Bu masalalar, muammolar, umumiy qilib aytganda, falsafiy ontologiyaning muammolari hisoblanadi.

Borliqni anglash va uni tanqidiy tahlil qilish jahon falsafasi tarixidagi asosiy mavzu va muammo hisoblanadi. Borliq muammosi – uning ilohiy talqini dinda bir qancha mazhab va oqimlarga bo'linishga, dunyoviy talqini ham kuchli ijtimoiy ziddiyatlar va bo'linishlarga, falsafaning ontologik ilmiy talqinida ham bir qancha falsafiy va ilmiy-nazariy maktablar va oqimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan va bu dialektik munozara davom etmoqda.

Koinot, olam, borliq bilan bog'liq mavzu jahon falsafasi tarixida o'zining salmoqli o'rni va maqomiga ega ulug' mutafakkir, o'zbek mumtoz adabiy tilining asoschisi, yirik davlat va jamoat arbobi – Amir Alisher Nizomiddin Navoiy (1441-1501) asarlarida ham o'ziga xos tarzda chuqur tadqiq va tahlil qilingan. Nazarimizda, mutafakkirning falsafiy ontologiyaga oid qarashlari tadqiqotlar doirasidan chetda qolib kelayotgan edi. Navoiy ontologik falsafasi, falsafiy tafakkur ta'limotlari bilan ayrim masalalarda umumiylik kasb etsada, lekin, Navoiyga xos original yondashuvlar borki, bunday falsafiy qarashlar chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni va aniq ilmiy-falsafiy xulosalar chiqarishni talab va taqozo qiladi. Ana shu jihatlarni tadqiq qilish mavzuning dolzarbligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi

Qarori<sup>1</sup> va unda belgilangan vazifalar ham mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini ko'rsatadi hamda mutafakkir merosini tadqiq qilish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ydi.

Ulug' mutafakkirning hayotiy va ijodiy faoliyati hali o'zi hayotlik paytidayoq katta e'tirof bilan o'rganila boshlangan. Jumladan, Navoiy adabiy merosini tarixiy taraqqiyot davrlarida tadqiq etish yuzasidan Sulton Husayn Boyqaro<sup>2</sup>, Abdurahmon Jomiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirxond, Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Sodiqbek Sodiqiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Xavofiy, Muyiniddin Isfizoriy kabi mualliflarni sanab o'tish mumkin.

Navoiy hayoti va ijodi, u haqda yozilgan yuqoridagi tarixiy qiymatdagi asarlar keyinchalik yirik sharqshunos, navoiyshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh - Navoiy hayoti va ijodi, ma'naviy, falsafiy merosini tadqiq etgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. Mutafakkir ijodini falsafiy mohiyatini yoritishda xorijlik olimlardan Eronlik navoiyshunos Muhammadzade Huseyn Siddiqning xizmatlarini e'tirof etish lozim. Olim Navoiy asarlarini tahlil etib, mazkur merosni jahon adabiyoti taraqqiyoti tarixidagi ahamiyati, san'at va mafkura nuqtai nazaridan butun dunyo madaniyatiga o'z hissasini qo'shganligi, til nuqtai nazaridan turkiy xalqlar madaniyatiga ulkan xazina taqdim eta olgani, jahon tilshunosligida tutgan o'rni borasida ilmiy izlanishlar olib borgan. Ingliz olimi Robert Mak Genri Navoiyning hayot yo'li, davlat boshqaruvidagi strategiyasi, asarlarining badiiy qimmatini yuzasidan o'z qarashlarini bayon etgan<sup>3</sup>. Hamid Dabashi esa fors adabiy dunyosida Navoiy merosining o'rni hamda mutafakkir falsafiy ijodining insonparvarlik mohiyatini

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Буюк шоир ва мутафаккир Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида" 2020 йил 19 октябрдаги ПҚ-4865 Қарори. <https://lex.uz/docs/5054929>

<sup>2</sup> Бойқаро Султон Хусайн. Рисола ёки Девони Хусайний. 2016, Маънавият – Б.143.

<sup>3</sup> Robert McHenry, ed. (1993). "Navā'i, (Mir) 'Alī Shīr". *Encyclopædia Britannica*. Vol. 8 (15th ed.). Chicago: Encyclopædia Britannica, Inc. - P. 563.

ochib bergan<sup>4</sup>. Shuningdek, Alisher Navoiyning falsafiy qarashlarini yoritishda R.Nikolson, N.J.Valmsley, K.P.Kurteyl, M.Sabtel, O.S.Levend, G'ulom Huseyn Hadod Odil kabi xorijlik mutaxassislarining xizmatlari e'tiborga loyiq. Navoiy adabiy merosini tadqiq etish yuzasidan xorijiy tadqiqotlar ko'lamida juda keng, biz o'z tadqiqotimizda asosan mutafakkirning falsafiy qarashlariga oid ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratdik.

Ikkinchi guruh - Navoiy ma'naviy merosining falsafiy tomonlarini yoritishda I.Yu.Krachkovskiy sharqshunoslik tarixida Navoiy merosining ahamiyati borasida, Ye.E.Bertels Jomiy va Navoiyning falsafiy qarashlarini qiyosiy tahlili yuzasidan o'z qarashlarini bayon etgan<sup>5</sup>. Nurmuxammad Ashurpur turkman adabiy merosida Navoiyning o'rni hamda Maxtumquli ijodida mutafakkirning sezilarli ta'siri xususida tahliliy yondashuvlarini bildirib o'tgan. Arman sharqshunosi J.Orbeli adib asarlarining falsafiy mohiyatini e'tirof etgan holda Navoiy ilmiy ijodiyotiga bag'ishlangan festival tashkil etgan. J.Shayaxmetova Markaziy Osiyo ma'naviy merosi taraqqiyotida Navoiy asarlarining ahamiyatini yuksak baholaydi. Shuningdek Alisher Navoiy merosining falsafiy mohiyatini tahlil etishda A.M.Proxorov, N.Lebedev, B.Furo'zonfar, J.Nurbaxsh, A.Kudelin<sup>6</sup> larning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir.

Uchinchi guruh - Mamlakatimiz tadqiqotchilari va olimlari tomonidan asrlar davomida Navoiy falsafiy merosi turli soha vakillari tomonidan tadqiq etilib kelinmoqda.

Navoiyshunoslik sohasida XX asrda katta yutuqlarga erishildi. Mazkur davrda Navoiy ijodini o'rganish jarayonida ijtimoiy-siyosiy hayot, unda Navoiyning o'rni bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, V.Abdullaev, A.Abduqodirov, S.Ayniy, H.Aliqulov, T.Ahmedov, S.Karimov, N.Komilov, N.Mallaev, M.Muhiddinov,

<sup>4</sup> Dabashi, Hamid (2012). The World of Persian Literary Humanism. Harvard University Press. - P. 165. ISBN 0-674-06759-2.

<sup>5</sup> Бертельс Е.Э. Навои и Джамии. Избранные труды. Т.3. - Москва: Наука, 1965. - С. 272.

<sup>6</sup> Куделин А. Арабская литература: поэтика, стилистика, взаимосвязи. - Москва: Языки славянской культуры, 2003. - С. 196.



I.Mo'minov, M.T.Oybek, S.Olimov, M.Oripov, A.Rustamov, A.A.Semyonov, O'.Sulaymon, I.Sultonov, M.Xayrullaev<sup>7</sup>, P.Shamsiev, Sh.Shomuhamedov, B.Eraliev, Q.Ergashev, S.Erkinov, A.Qayumov, M.Qo'shjonov, S.G'anieva, A.Hayitmetov, I.Haqqulov<sup>8</sup> va boshqa olimlarimiz tadqiqotlarini keltirib o'tish mumkin. Ayniqsa, Navoiy merosining falsafiy tahlili, unda borliq, uning yaralishi, mavjudligi, o'zgarishlar va jarayonlar talqiniga ma'rifiy yondashuv, badiiy obrazlilik, majoz bayoni masalalarini yoritib berishda V.Zohidov<sup>9</sup>, I.Sultonov, M.Oripovning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Shuningdek, istiqlol yillarida navoiy ijodiyotini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar doirasi yanada kengaydi. B.Valixo'jaev, R.Vohidov, M.Imomnazarov, N.Komilov, Z.Mamadaliyeva, M.Mahmudov, M.Muhiddinov, D.Salohiy, Sh.Sirojiddinov, A.Quronbekov, Sh.Hayitov kabi ko'plab adabiyotshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi. Mazkur tadqiqotlarda asosan tasavvuf va tasavvuf adabiyotidagi ilmiy-ma'rifiy qarashlar va uning o'zbek mumtoz adabiyotidagi badiiy talqini masalalari haqida mulohazalar bayon etiladi. Mamlakatimizda Navoiy adabiy merosiga falsafiy yondashuv masalasida Sh.Sirojiddinovning tadqiqotlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Olimning tadqiqotlari mutafakkir haqidagi birlamchi, ishonchli manbalarga asoslanganligi, shuningdek, uning ijtimoiy-axloqiy va aynan falsafiy jihatlarini chuqur tahlil qilganligi bilan ajralib turadi<sup>10</sup>. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlaridagi zamon va makon masalalari badiiy bayonlaridagi tarixiy va xronotop xususiyatlari hamda falsafiy jihatlariga U.Jo'raqulovning

<sup>7</sup> Хайруллаев М.М. Навоий дунёкарашининг ғоявий манбаларини ўрганиш ҳақида. // Навоий ва адабий таъсир масалалари. —Тошкент: Фан, 1968. — Б. 334.

<sup>8</sup> Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Т — 1993. — Б. 48.

<sup>9</sup> Захидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. — Ўзбекистон, 1970. — 332 б; Захидов В. Мир идея и образов Алишера Навои. — Из-во худ. литературы Узбекской ССР, 1961. — Б. 245.

<sup>10</sup> Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг киёсий-типологик, текстологик таҳлили. —Тошкент: Академнашр, 2011. — Б. 326. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари / Монография. —Тошкент: Янги асравлоди, 2011. — Б. 200. Сирожиддинов Ш. Ислоҳ фалсафасига кириш: Калом илми. — Тошкент: Иқтисод-молия, 2008. — Б.11.

tadqiqotlarida ham urg‘u berilgan<sup>11</sup>. R.Toshniyozova izlanishlarida esa mutafakkir ijodidagi falsafiy qarashlarning poetik xususiyatlari “Xamsa” dostonlari misolida tadqiq etiladi<sup>12</sup>.

Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotlarda Navoiy ijodiy merosi yuzasidan asosan, adabiyot, adabiyot tarixi, lirik mahorat, tilshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, pedagogika kabi soha va ixtisosliklar bo‘yicha izlanishlarni kuzatish mumkin. Shundan kelib chiqib, bizning monografik tadqiqotimizda mutafakkirning borliq falsafasi, uning asarlarida bilish muammosi, makon va zamon talqinini yoritib berishga harakat qilingan.

Umuman olganda monografiyaning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy merosidagi borliq va yo‘qlik dialektikasi (ontologik), bilish nazariyasi (gnoseologik), ilmiy bilish (epistemologik) izohiga oid manbalar ilmiy-nazariy asoslanib, mutafakkir ijodida inson muammosining falsafiy-konseptual talqini ochib berilgan;

Navoiy adabiy merosida yoritilgan ontologik falsafaga oid hayula, qayum, mohiyat, javhar, adam, azal, abad, araz, dark, bidoyat, vujud, vahdoniyat kabi istilohlarning ma‘naviy-axloqiy tarbiya bilan bog‘liq mazmun-mohiyati falsafiy asoslangan;

Alisher Navoiy ma‘naviy merosidagi borliq ibtidosi (substansiya), moddiy va nomoddiy borliqning mavjudlik xususiyatlari, borliqda harakat, borliqda o‘zgarish, yo‘qlikka aylanish kabi ontologik qarashlarning bugungi davr falsafasidagi zamonaviy talqinlari mantiqiy dalillangan;

Alisher Navoiy falsafasida vahdat, vahdatul vujud tasavvufiy kategoriyalar talqinida “hamma narsa Undan” va “hamma narsa U” konsepsiyalarining ideologik (g‘oyaviy) mazmun-mohiyati asoslanib,

---

<sup>11</sup> Журакулов.У. Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филология фанлари бўйича фан доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 73.

<sup>12</sup> Тошниёзова. Р.Т. Алишер Навоий тафаккури онтологияси поэтик ифодаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд. – Б. 140.

yoshlar mafkuraviy immuniteti hamda falsafiy tafakkurini shakllantirishdagi konstruktiv (bunyodkorlik) ahamiyati ochib berilgan.

Navoiy asarlarida kosmos (fazo), zamon, makon kategoriyalarining hozirgi davrga xos diniy-falsafiy (panteistik) mohiyati va o'sha davrga xos bilish muammosining irfoniy (tasavvufiy, qomusiy) jihatlari falsafiy asoslangan.

## **I bob. ALISHER NAVOIY ONTOLOGIK QARASHLARINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

Bu bobda ulug' mutafakkirning falsafiy merosi, ontologiyaga oid qarashlarining nazariy manbalari, metodologik asoslari, falsafiy merosiga mafkuraviy muhitning ta'siri xususida fikr yuritiladi. Xususan, Navoiyning Qadimgi Misr, Bobil, Shumer, Hind, Xitoy, Arab xalqlari, Shimoliy Afrika (Mag'rib), Yaqin Sharq, Markaziy Osiyo xalqlari va Qadimgi Yunon falsafasiga oid ilmiy-falsafiy manbalarni chuqur o'rganganligi, shular asosida borliq falsafasining o'ziga xos talqinini yaratganligi tahlil qilingan va Navoiy merosini o'rganishda turli davrlarda turlicha mafkuraviy yondashuvlar, xususan, sho'ro tuzumiga xos noxolis munosabatlar, misollar vositasida tahliliy tadqiq etish maqsadi qo'yilgan.

### **1.1. Alisher Navoiy falsafiy qarashlarining nazariy manbalari va metodologik asoslari**

Insoniyat eng ibtidoiy davrlardan boshlab o'zini o'rab turgan borliqning sir-asrorlarini bilishga, keyinchalik, tafakkur taraqqiyoti yuksalishi tarzidan kelib chiqib, koinot sirlarini o'rganishga qiziqib kelgan. Aynan ana shu qiziqish va uni o'rganishga intilish insoniyat hayoti va taraqqiyotining bosh mazmuni, tamaddunlar taraqqiyotining asosiy generatori – ya'ni taraqqiyotining asosiy manbai bo'lib kelmoqda.

Borliq uning yaralishi, yaralish ibtidosi, yashash tarzi, shakl-shamoyili, ichki mazmuni, manguликка doxilligi yoki o'tkinchiligi kabi savollar ibtidoiy davrlardan to hozirgi kungacha fanlarning otasi bo'lgan falsafa fanining, uning asosiy yo'nalishi va mavzusi bo'lgan – ontologiyaning bosh muammosi bo'lib kelmoqda. E'tiborli jihati, ontologik muammolarning ko'plab savollari, nazarimizda, eng taraqqiy etgan aniq fanlar sohasida katta ijobiy natijalarga erishganligiga qaramay, hanuz ochiqlicha qolmoqda. Bular toifasiga dunyoviy, ya'ni Yer ilmida (geologiya) – Yerning yaralishi, tuzilishi, uning tarkibini (klassik falsafadagi to'rt unsur nazariyasidan tortib to hozirgacha) tashkil etgan unsurlar, ularning xususiyatlari, umuman falsafada koinot (kosmos)ni,

undagi sayyoralarining paydo bo'lishi bilan bog'liq savollarga aniq va to'liq javob topish va hokazolar.

Shubhasiz, xolis-ob'yektiv tahlil qilganimizda – Ontologiyaning yuqoridagi muammolari dunyo tamaddunining qadimgi o'choqlari bo'lgan - Misr, Hindiston, Xitoy, Yaqin Sharq mamlakatlari, Arabiston yarim oroli mamlakatlari, Iroq, Shom, qadimgi Markaziy Osiyo kabi qadimgi Sharqning boshqa mintaqalari, Shimoliy va Sharqiy Afrika, mamlakatlari va qadimgi Yunoniston kabi mintaqalarda daslabki davrlarda oddiy ibtidoiy tasavvur – miqlar sifatida bo'lsa, keyinchalik, e'tiqod tarzida dinlar sifatida namoyon bo'lgan. Nihoyat bu qarashlar takomillashib, rivojlanib, mukammallashib borgan.

Ko'rib turganimizdek, garchi insoniyatning, million yillardan beri o'zini o'rab turgan olam ibtidosi, mavjudlik shakli, mazmuni, o'zgarishlar jarayonlari sir-asrorlarini bilish bilan bog'liq qarashlari tarixi juda uzoq bo'lishiga qaramasdan, ontologiya falsafaning borliq bilan bog'liq *asosiy yo'nalishi sifatidagi nomi* ancha keyin, aniqrog'i falsafiy qarashlarning yangi tarixi davrida paydo bo'ldi. Falsafa faniga oid ilmiy manbalarda qayd etilganidek, **Ontologiya** so'zi, yunoncha “Ontos” - borliq va “logos” – fan, ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, falsafa fanining asosiy bo'limi, borliq haqidagi ta'limotdir. U borliqning umumiy asoslari, prinsiplari, shakllari va qonuniyatlarini tekshiradi.

“Ontologiya” terminini fanga nemis faylasufi **R. Goklenius** 1613 - yili kiritgan bo'lsa, **X. Volf** (1679-1754) esa o'z darsligida qo'llagan bo'lsada, dastlab yunon faylasuflari uning turli talqinlarini bayon etganlar<sup>13</sup>. Ular ontologiyani *haqiqiy borliqni nohaqiqiy mavjudlikdan* ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limot, deb hisoblashgan<sup>14</sup>.

Bizning davrimizgacha falsafaga oid manbalarda e'tirof etilganidek, falsafa faniga qadimgi Yunonistonda asos solingan degan qarashlar ustuvor. Lekin, falsafaga faqat qadimgi Yunonistonda asos solinmagan, balki yunon mutafakkirlari va yunon falsafa maktablarining muhim tarixiy xizmatlari shundaki, ular o'zlarigacha bo'lgan falsafiy qarashlarni

<sup>13</sup> Тўраев Б. Борлиқ (фалсафий тахлил) // Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази, - Самарқанд-Тошкент: 2022. – Б. 4.

<sup>14</sup> ru.wikipedia.org/wiki/Онтология

umumlashtirdilar, tizimga soldilar, ilmiy-falsafiy-dialektik chig'iriqda tobladilar, undanda e'tiborlisi yozma tarzda o'zlaridan keyingi avlodlarga yetkazishda muhim vositachilik rolini o'tashdi. Ular o'z davrlari ijtimoiy-siyosiy vaziyati va maqomlaridan kelib chiqib, *g'oliblar merosi va qadriyatleri* sifatida bosib olingan xalqlar falsafasini ham o'zlariniki sifatida bitib ketdilar. Dialektik yondashuv, falsafiy qarashlarda o'z maktablarining shakllanishi, Yunonistondagi klassik falsafa maktablarida falsafiy ta'limotlar o'ziga xos tarzda takomillashib, mukammal ilmiy maktab darajasigacha ko'tarildi. Yunonistonda antik davrgacha bo'lgan davr, ayniqsa, antik davr falsafasida falsafiy ta'limotlar juda yuksak cho'qqiga ko'tarildi. Masalan:

**Eleya maktabi** yunon falsafiy maktabi namoyandalari hissiy dunyoning aldamchi ko'rinishini haqiqiy borliqqa qarama-qarshi qo'yib, ontologiyani mangu, o'zgarmas, yagona, sof borliq haqidagi ta'limot sifatida qo'llashgan. Eleya maktabi miloddan avvalgi VI-V asrlarda Eleyada (Italiyaning janubi) shakllangan. Asoschisi - Ksenofan, yirik namoyandalari Parmenid, Zenon, Meliss, Gorgiylardir. Eleya maktabi vakillari *sezgi a'zolarimiz orqali oladigan bilimimiz shubhali, haqiqiy emas, faqat aql orqali oladigan bilimlarimiz haqiqiy* deb hisoblagan. Milet maktabi va Geraklit materialistik g'oyalariqa qarshi keskin kurash olib borgan. Eleya maktabi falsafa tarixida birinchi bo'lib *yagona borliq* tushunchasini ilgari surgan. Eleya maktabi vakillari fikricha, yagona borliq uzluksiz, o'zgarmas, bo'linmasdir. Keyinchalik yagona o'zgarmas borliq tushunchasi Platon va neoplatonizm falsafasi manbalaridan biri bo'lib xizmat qildi. Antik falsafaning shakllanishi Eleya maktabi bilan tugallandi<sup>15</sup>. Maktab vakillari va Ioniya faylasuflari dastlabki borliqning sifatiiy talqini haqida bosh qotirishgan.

Ulardan borliqning boshlanishi (ibtidosi)da yotuvchi bunday asosni Empedokl "*stixiya*", Demokrit "*atomlar*", Anaksimandr "*apeyron*", Anaksagor "*urug*" deb atagan.

**Milet maktabi** miloddan avvalgi VI asrda vujudga kelgan. Yirik namoyandalari - Fales, Anaksimandr, Anaksimenlar hisoblanishadi. Ular

---

<sup>15</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/eleya-maktabi-uz/>

tabiatdagi hodisalarni o'zgarishda, o'zaro aloqadorlikda, bir-biriga o'tib turishda deb, voqea-hodisalar sababini tabiatning o'zidan qidirdilar. Ruhiy hodisalar, masalan jonni materiyaning ko'rinishi, butun tabiatni jonli deb tushunganlar. Bu ilmiy-falsafiy qarashlar, keyinchalik ularning ma'naviy-madaniy vorislari bo'lgan Yevropa ilmiy kosmogoniya, kosmologiya, fizika, geografiya, meteorologiya, astronomiya va biologiyasi tarixi Milet maktabidan boshlanadi. Milet maktabi va uning vakillari Yunonistonda falsafiy fikr rivojiga katta hissa qo'shdilar. Xususan, Platon g'oyalar (ruhlar) ontologiyasini, Aristotel empirizm ontologiyasini yaratdi<sup>16</sup>.

O'rta asrlar falsafasida ontologiya ilohiyot bilan chambarchas bog'lanadi. Sharq falsafasida ontologiya ko'proq ilohiy borliqning, Xudoning mohiyatini aks ettiruvchi ta'limot tarzida, Sharq panteistik falsafasida vahdati mavjud va vahdati vujud ko'rinishidagi ta'limotlar shaklida paydo bo'lgan.

Falsafada ontologiyaga oid qarashlar borliqning ibtidosi va mavjudlik tarzidan kelib chiqib, *monistik, dualistik va plyuralistik* konseptiyalar shaklida ham uchraydi.

Yangi davr falsafasida dualistik ontologiya namoyandasi R.Dekart bo'lgan. O'z falsafasining asosiga "*monada*" - "*ilohiy atomlar*"ni qo'ygan V.G.Leybnis falsafasi - plyuralistik ontologiyaga mansubdir. Bu konseptiya bo'yicha olamning asosida bir qancha mohiyat yotishi mumkin. Shunday konseptiya empiriokrititsizmda ham uchraydi. R.Avenarius, E.Max borliqning asosida sezgilar majmui yotadi, deb hisoblaydi<sup>17</sup>.

Navoiy islomgacha bo'lgan falsafiy ilmlar tarixini ham juda yaxshi o'rgangan va ularning mazmun-mohiyat xususida o'z asarlarida keng o'rin ajratgan. Xususan, jahon tamadduni asosiy o'choqlari bo'lgan – Qadimgi Misr, Hindiston, Bobil, Yunoniston, Xitoy tarixi va falsafasidagi muhim jihatlarini tahlil qilgan hamda o'z qarashlari bilan boyitgan. Shu sababli Alisher Navoiy dostonlari badiiy talqinida va ilmiy-nazariy

<sup>16</sup> Милет мактаби. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/milet-maktabi-uz/>

<sup>17</sup> Философия НОВОГО времени. <https://ru.wikipedia.org/>

asarlari voqealar va falsafiy masalalar bayonida ham aynan ana shu tamaddun o'choqlari tarixi, diniy-falsafiy qarashlar, falakiyot ilmi erishgan natijalar, erishilgan ilmiy-amaliy yutuqlarga ko'plab ishoralar, ulug' mutafakkirlarning ijodiy faoliyati hamda ularning asarlari nomlari alohida e'tibor, e'tirof va ixlos bilan bayon qilingan.

Alisher Navoiy o'z davrigacha shakllangan falsafaga oid manbalarni chuqur o'rganganligi uning asarlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, "Hayratul-abror"ning XIX bobida: but va buddaviylik falsafasiga ishorani ko'rish mumkin. Xususan, buddaviylikda olam va borliq falsafasidagi xususiyatlar keltiriladi. Unda buddaviylik asoschisi – Siddxartiya Gautma (er.av.623-544yy) haqida fikrlar bor<sup>18</sup>.

Uning "Tarixi muluki ajam", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Saddi Iskandariy", va boshqa bir qator asarlarida qadimgi davr tarixi, falsafasi, yirik faylasuf olimlarining qarashlari, hikmatlari, asarlari ta'riflanadi va qiyoslanadi.

Nizomiyning "Iskandarnomasi"dan keyin, unda keltirilgan yunon faylasuflarining (ontologiya) borliqning yaralish bilan bog'liq nazariyalari talqini quyidagicha:

Borliq falsafasining o'zagi bu *substansiya* masalasidir. Substansiya turli davr falsafiy maktab namoyondalarida turlicha tavsiflab kelingan.

Navoiy falsafiy qarashlarida ham aynan "hayula", "qayyum" yoki "qoyim", "mohiyat", "javhar" kabi istilohlar substansiyani anglatadi. Ontologiya eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha juda uzoq, murakkab va rang-barang tarzda tahlil va tavsif qilib kelingan va bu jarayon hali toki hayot bor ekan yanada qizg'in davom etadi<sup>19</sup>.

Alisher Navoiyning Yunon mutafakkirlari ijodidan bahramand bo'lganligi, deyarli hamma asarlarida o'z aksini topgan. Bu ma'lumotlar va qarashlar Navoiyning boshqa hamma asarlari badiiy-majoziy, ilmiy-falsafiy va tarixnavislik bayoni tarzida berilgani kabi uning, "Tarixi anbiyo va hukamo"<sup>20</sup> asarining "hukamo zikri" bobida asosan yunon olimlari haqida gap boradi.

<sup>18</sup> Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 7 т. Хамса: Хайрат ул-аброр. –Тошкент: Фан, 1991.-Б. 90-91.

<sup>19</sup> <https://iphlib.ru/library/collection/newphilenc/document/HASH0155bae870519c2e6689cb55>

<sup>20</sup> Навоий. А. МАТ: 20 томлик. 16 т. Тарихи анбиё ва ҳукамо. – Т.: Фан, 2000. – Б. 99-194.